



NAMANGAN – G'URURI BALAND, TADBIRKORLIKDA ENG ILG'OR INSONLAR YURTI!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 25 – 26-mart kunlari Namangan viloyatida bo'ldi.

2s

QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT



№ 11 (1243) 2024-yil 27-mart, chorshanba

Adabi — 5 263

milliy tiklanish

www.mtgazeta.uz | fb.com/milliytiklanish.gazetasi | t.me/milliy_tiklanish_gazetasi

«UMRA» ZIYORATI FUQAROLAR UCHUN SAYOHATGA, TURFIRMALAR UCHUN ESA BIZNESGA AYLANDIMI?



«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida «Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonun loyihasi qizg'in muhokama qilindi. Ma'lumki, keyingi yillarda fuqarolarning vijdon erkinligi bilan bog'liq konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash maqsadida «Umra» va «Haj» ziyoratini erkin amalga oshirishga keng imkoniyat yaratib berildi. Turizm bilan shug'ullanuvchi xususiy sektorga ham litsenziya asosida «Umra» xizmatlarini ko'rsatishga ruxsat berilgani ziyoratchilar sonini keskin oshirdi. Xususan, o'tgan yili 58 mingdan ortiq yurtdoshimiz diniy amallarini bajardilar. Ammo shuni alohida qayd etish joizki, keyingi paytlarda bir qator firmalar faoliyatidagi xatolar ziyoratchilarning haqli e'tirozlariga sabab bo'la boshladi.

3s

«MILLIY TIKLANISH»



ANONSLAR

ILGARI QOG'UZDA EDI, bugun esa real hayotda amalga oshganini ko'ryapmiz

2-sahifa

ARISHTASI BOR INSON EDI

Samimiy tabassumi, tarbiyasi, madaniyati va iqtidori bilan hamkasblari mehrini qozongan jurnalist Sohibjon Alijonov milliy jurnalistikamizda o'ziga xos iz qoldirib, el nazariga tushgan inson edi. 1968-yili Farg'ona viloyatining Bag'dod tumanida tug'ilgan Sohibjon Alijonov 1992-yilda Toshkent davlat madaniyat institutining Madaniy-ma'rifiy ishlar xodimi mutaxassisligini, 2003-yilda Prezident huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiasining davlat va jamiyat qurilishi mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan.

6s



O'ZBEKISTON TERMA JAMOASI «OSIYO KUBOGI 2027» YO'LLANMASINI QO'LGA KIRITDI



8s

TAKLIF SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGIDAN CHIQUISHI KERAK

3s

BU VANDALIZM! BOSHQA NARSA EMAS

4s



O'zbekiston va Xalqaro mehnat tashkiloti: amaliy hamkorlik kengaytiriladi

O'zbekiston Senati Raisi, Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha milliy komissiya raisi Tanzila Norboyeva Jeneva shahrida Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT)ning Yevropa va Markaziy Osiyo bo'yicha byurosi mintaqaviy direktori Beate Andrees bilan muzokara o'tkazdi. O'zbekiston va XMT o'rtasidagi aloqalarni kengaytirish, jumladan, mamlakatimizda munosib mehnat sharoitlarini tizimli ravishda yaratish borasida hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish masalalari ko'rib chiqildi. Suhbat chog'ida munosib mehnat va ijtimoiy himoya tamoyillarini joriy etish, norasmiy bandlikka qarshi kurashish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini asosiy daromad bilan ta'minlash, o'zini o'zi band qilish standartlarini joriy etish kabi hamkorlik yo'nalishlariga e'tibor qaratildi. XMTning mamlakatimiz, umuman, Markaziy Osiyodagi ishtirokini kengaytirish, konstruktiv mulqot izchilligini ta'minlash maqsadida Toshkent shahrida XMTning xalqaro koordinatori lavozimi tashkil etilgani ma'lum qilindi. Bu, o'z navbatida, mehnat munosabatlari sohasida O'zbekistonning ilg'or tajribasini mintaqada ham joriy etish imkonini berishi ta'kidlandi. Shu bilan birga, kelgusida Toshkentda XMTning Markaziy Osiyoning barcha davlatlari uchun submintaqaviy vakolatxonasini tashkil etish yuzasidan fikr almashildi. Uchrashuv yakunida XMTning yuqori malakali mutaxassislarini jalb qilgan aloqalarini kengaytirishga kelishib olindi.

N.ABDURAIMOVA, O'za

3-sahifa

Mamlakatimizda ruxsatsiz qurilish qilganlik uchun eng yuqori jarima amalda

2740

dollar bo'lsa, bu miqdor Gruziyada 6 000, Belorussiyada 7 000, Rossiyada 10 500 dollarni tashkil qiladi. Shuningdek, binoning tayanch va to'siq qismini noqonuniy buzganlik uchun ma'muriy jarima miqdori oshirilib, jinoiy javobgarlik belgilanyapti.



«UMRA» UCHUN ESA BIZNESGA AYLANDIMI? ZIYORATI FUQAROLAR UCHUN SAYOHATGA, TURFIRMALAR



Turoperatorlarning noqonuniy daromadi kesiladi, «Umra» ziyorati huquqiy jihatdan tartibga solinmoqda

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining 25-mart kuni bo'lib o'tgan yig'ilishida «Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonun loyihasi qizg'in muhokama qilindi. Ma'lumki, keyingi yillarda fuqarolarning vijdon erkinligi bilan bog'liq konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash maqsadida «Umra» va «Haj» ziyoratini erkin amalga oshirishga imkoniyat yaratib berildi. Turizm bilan shug'ullanuvchi xususiy sektor ham rasman litsenziya asosida «Umra» xizmatlarini ko'rsatishga ruxsat berilgan ziyoratchilar sonini keskin oshirdi. Xususan, o'tgan yili 58 mingdan ortiq yurtdoshimiz diniy amallarini bajardilar. Ammo shuni alohida qayd etish joizki, keyingi paytlarda bir qator firmalar faoliyatidagi xatolar ziyoratchilarning ham haqli e'tirozlariga sabab bo'la boshladi.

Bunga hududlarda «Umra» xizmatlarini litsenziyasiz amalga oshiradigan turoperatorlar ko'paygani ham sabab bo'lyapti. Misol uchun bugun 70 ga yaqin turoperator litsenziya bilan faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, 200 dan ortiq firmaning noqonuniy shug'ullanayotgani aniqlandi. Qonunchilikda bu borada qat'iy normalar belgilanmagani bois bunday firmalar hatto diniy amal bilan bog'liq oddiy talablarni ham bajarmayaptilar. Jumladan, ziyoratchilarga hamrohlik qilish uchun diniy sohada yetarli malaka va tajribaga ega bo'lmagan «ellikboshi»larni yollash holatlari ko'paymoqda. Shuningdek, ziyoratchilarni e'tiqodimizga zid adabiyotlar bilan tanishtirish, an'anaviy ziyorat talablaridan chetga chiqish, fuqarolarimizning Saudiya Arabistonida bo'lish qoidalariga to'liq amal qilishini nazorat qilmaslik holatlari uchrayapti. Ziyorat bo'yicha reklamalarda berilayotgan va dalar ham bajarilmayapti. Ya'ni, Masjidul Nabaviy va Masjidul Xaramga yaqin joydan mehmonxonalar bilan ta'minlash va'dasi berilib, manzilga yetib borilganidan keyin ziyoratchilar uzoq masofadagi mehmonxonalariga joylashtirilayotgani, ovqatlanish, transport bilan bog'liq muammolar jiddiy noroziliklarga sabab bo'lmoqda. Eng yomoni, bunday holatlar O'zbekistonning obro'-e'tiboriga ham salbiy ta'sir ko'rsatyapti. Joriy yilning yanvar oyida «Panorama Airways» xususiy aviakompaniyasi parvozlarini orqali «Umra»ga jo'natilgan ziyoratchilar qaytishi uchun aviachipta xarid qilinmagani natijasida qariyb 13 ming nafar fuqaro Saudiya Arabistonida qolib ketdi. Bu masala faqat hukumat darajasiga ko'tarilganidan keyingina fuqarolarimizning ortga qaytishiga yordam ko'rsatildi. O'tgan haftada ham 500 nafar yurtdoshimiz ushbu davlatda qolib ketdi.

Belgilangan tartibga ko'ra, «Umra» ziyoratini amalga oshirayotgan turoperatorlar har bir ziyoratchini ro'yxatdan o'tkazib, Saudiya Arabistoniga o'rnatilgan tartibda soliq to'lashi kerak. Ammo qing'ir yo'llar axtarilib, bu qo'da ham bajarilmayapti. Shuningdek, ziyoratga ketayotgan fuqarolar tibbiy ko'rikdan o'tkazilmayapti. Ziyorat davomida yetarlicha tibbiy xizmat ko'rsatilmayotgani natijasida 2022-yilda 10 nafardan vatandoshimiz Saudiya Arabistonida vafot etdi. Yuqoridagi muammolar e'tiborga olinib, ushbu qonun loyihasi bilan «Umra» xizmatlarini tashkil etish bo'yicha alohida litsenziya turini joriy etish hamda Din ishleri bo'yicha qo'mitani litsenziyalovchi organ sifatida belgilash taklif etilmoqda. Bu bilan «Umra» ziyorati huquqiy jihatdan tartibga solinadi va ziyoratchilarning haq-huquqlari ta'minlanadi. Fraksiya rahbari Alisher Qodirov ushbu qonun loyihasini qo'llab-quvvatlar ekan, keyingi paytlarda ayrim fuqarolar ziyoratni sayohatga, turfirmalar esa biznesga aylantirayotganini, aslida «Umra» bu – diniy ibodat ekanini ta'kidladi. – «Umra»ning ham tartib-qoidalari, talablari va hurmati bor. Ziyoratga sharoiti yetgan odamlar borishi kerak, oilasi, farzandlarining rizqini qiyib, qarz-havola qilib emas, – dedi Alisher Qodirov. Fraksiya a'zosi Kozimjon Tojiyev alohida litsenziyaning joriy qilinishi davlat monopoliyasini paydo qilmaydimi, degan mazmunda savol berdi. Qonun tashabbuskorlari bunga javoban, bu yerda gap ta'qiqlash haqida emas, tartibga solish haqida ketayotganini bildirishdi. Litsenziyaning joriy qilinishi endi bu faoliyat bilan faqat Diniy qo'mita shug'ullandi degani emas. Bu bo'yicha ishlab chiqiladigan talablarga javob beradigan har qanday

turoperatorga litsenziya beriladi va bugungi kunda bunday imkoniyatga ega firmalar juda ko'p. Yig'ilishda «Seysmik xavfsizlikni ta'minlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston

bosh rejani buzish holati esa 2021-yilda 17 ta, 2022-yilda 24 tani tashkil qilgan. Ayniqsa, ko'p qavatli uylarning birinchi qavati yoki yerto'lasini «nejiloy» qilib, tayanch qismini buzib tashlagan holda do'kon, kafe, restoran va boshqa

740 dollar bo'lsa, bu miqdor Gruziyada 6 000, Belorussiyada 7 000, Rossiyada 10 500 dollarni tashkil qiladi. Shuningdek, binoning tayanch va to'siq qismini noqonuniy buzganlik uchun ma'muriy jarima miqdori oshirilib, jinoiy javobgarlik belgilanyapti. Xususan, buning uchun jarima 2 baravarga oshirilib, fuqarolarga 17 million so'm, mansabdorlarga esa 34 million so'm tarzida belgilanmoqda. Noqonuniy qurilish bartaraf etilgan taqdirda esa jazo qo'llamaslik talabi saqlab qolinmoqda. Umuman, bu kabi qilmishlar uchun 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi ham taklif etilayotganini aytish joiz. Fraksiya a'zosi Farhod Zayniyev ushbu qonun loyihasi juda ham dolzarbligini, biroq loyihada yuridik va tahrir jihatdan kamchiliklar ko'pligini ta'kidladi. Deputat qonun loyihasiga mas'ul qo'mita vakili sifatida ikkinchi o'qishda bu kamchiliklar albatta tuzatilishini ma'lum qildi. Deputatlar, shuningdek, noqonuniy qurilishlar inson hayoti bilan bog'liq ekan, loyihada taklif etilayotgan jarimalar miqdori kamligini ta'kidladilar. Ikkinchi o'qish jarayonida ushbu masala bo'yicha fraksiyada alohida ishchi guruhi tuzilib, bu borada xorijiy tajriba o'rganilib, jazo choralarini yanada kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga kelishib olindi. Yakunda shunday fikr bildirish muki: jazolar qonuniy buzmoqchi bo'lgan qurilish kompaniyalari uchun qo'rqitadigan, to'xtatadigan darajada bo'lmaz ekan, bunday holatlarni to'xtatib bo'lmaydi. Kuni kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yalpi yig'ilishida ham ushbu qonun loyihalari muhokama qilindi, birinchi o'qishda konseptual ma'qullandi.

Ravshan MAHMUDOV,
«Milliy tiklanish» muxbiri

Deputat minbari

Taklif Sog'liqni saqlash vazirligidan chiqishi kerak



Jahongir ZIYAYEV,
xalq deputatlari Mirzo
Ulug'bek tuman Kengashi
deputati


...13-15 yoshdagi o'quvchilarning 1,7 foizi tamaki chekadi, 7,7 foizi esa hech bo'lmasa bir marta chekib ko'rgan. Yaqinda Sog'liqni saqlash vazirligi ana shunday ma'lumotlarni tarqatib, ota-onalarni ogohlikka chaqirdi. Ko'pchilik yurtdoshlarimizning fikricha, maktablardagi holat bundan ham yomon! Yaqinda bir pedagog bilan shu masalada gaplashib qoldim. Uning aytishicha, nafaqat yuqori sinf, hatto 5-sinf o'quvchilari orasida ham elektron sigaret chekish urf bo'lyapti ekan, eng achinarlisi, ular orasida qizlarning ham borligi. Bu haqda

ota-onasiga ayttsak, ba'zilari «Biz qaytarolmayapmiz, o'zingiz biron narsa qiling» deydi. Ota-ona o'z bolasini eplolmasa, biz qanday eplaymiz. Qattiqroq gapirsang, ota-onasi maktabga chopib keladi. O'zi shu zahar-zaqqumni butunlay taqiqlasak bo'lmaydimi. Ana qo'shnilarimiz taqiqlabdi-ku, – deydi kuyunib. Ha, haqiqatan ham qo'shnilarimiz – Qozog'istonda elektron sigareta(veypl)larni olib kirish, ishlab chiqarish va sotishga qat'iy taqiq qo'yildi. Aybdorlar 50 sutkagacha qamalishi yoki 2 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilinishi belgilab ham qo'yildi. Qirg'izistonda esa

shu haqdagi qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi. Elektron sigaretalarning zarari haqida uzoq gapirish mumkin. Ishlab chiqaruvchilar tomonidan organizmga zararsiz deya aytilayotgan veyplar salomatlik uchun o'ta xavfli. Odatiy sigaretalar kabi o'pka, yurak qon-tomir kasalliklari, immunitet pasayishiga sabab bo'ladi. Eng yomoni, genofondga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Aslida bunday qonun birinchi bo'lib O'zbekistonda qabul qilinishi kerak edi. Chunki partiyamiz fraksiyasi tomonidan bir necha yil oldin elektron

sigareta – veyplarni qat'iy taqiqlash taklifi ilgari surilgan edi. Jumladan, 2021-yilning noyabrida o'tgan fraksiya yig'ilishlaridan birida «Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida»gi qonun loyihasiga shunday band kiritish taklif qilindi. O'shanda fraksiya rahbari Alisher Qodirov dunyoning 32 mamlakatida elektron sigareta cheklangani, nima uchun bizda cheklanmasligi kerakligini aytib, «Kim nima desa desin, ushbu qonun loyihasiga elektron sigaretalarni qat'iy taqiqlash bo'yicha cheklov kiritilmas

ekan, biz ushbu qonunning qabul qilinishiga qarshi ovoz beraveramiz», degandi. Lekin afsuski, o'shanda parlamentda bu taklif yetarlicha ovoz ololmadi. Faqat jamoat joylarida chilim va elektron sigareta chekish taqiqlandi, xolos. Shuning uchun ham bugun aholi sog'ligiga mas'ul idora – O'zbekiston sog'liqni saqlash vazirligi shunday qonun loyihasini tashabbus qilib, Qonunchilik palatasiga kiritsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Nazarimda vazirlik «Dok-1 Maks» bilan bog'liq ayanchli hodisadan saboq chiqargan bo'lishi kerak...



Avstraliyalik tadqiqotchilar kam uyqusizlik asoratlarini tuzatish mumkin degan xulosaga kelishibdi. Ularning aytishicha, organizmning o'zi unga qachon dam olish kerakligini eslatib turadi.



Eldan qolsang ham, «trend»dan qolma!

2023-yilda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni 4,89 milliarddan oshgani aytilmoqda. Ijtimoiy so'rovnomalar esa o'rtacha har bir odam oyiga yetti xil ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi, ularning aksari bir kunda 151 daqiqani ijtimoiy tarmoqlarga sarflashini ko'rsatgan.

Chindan ham shiddat bilan globallashayotgan dunyoda bu ko'rsatkichlar kundan-kunga o'sib bormoqda. To'g'ri, internetdan foydalanish yaxshi. Ammo yoshlar orasida «trend» tushunchasining ommalashishi vaziyatni mutlaqo boshqa tomonga burib yuborayotgandek. Ma'lumki, ingliz tilidan olingan «trend» so'zi «yo'nalish», «rag'bat, moyillik, intilish», «moda, fason, uslub» ma'nolarini anglatadi. Masalan, «Toshkentda ko'pxotinlilik masalasi yana trendda», «Yakunlangan haftaning trendda bo'lgan asosiy mavzularini eslaymiz» yoki biror bir mashhurning qilgan 15 soniyalik qiliqlari ham «trendda» so'zini «dolzarb» so'ziga bema'lol almashtirishi mumkin. Bugun «trend» oqimiga qo'shilib, osongina «yulduz» bo'lish mumkin deb o'ylayotgan yoshlar mohiyatini tushunib-tushunmay bu yo'nalishga «kalla tashlashyapti».

Qayd etilishicha, ayni paytda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining 61,2 foizini 18-34 yoshdagilar tashkil etmoqda. Achinarlisi tengdoshlarimiz, hatto maktab o'quvchilari orasida ham «trend»da bo'lish asosiy maqsadga aylanib qoldi. Bu bir qaraganda oddiy holdek tuyulishi mumkin. Biroq bir necha soniyalik video olish uchun soatlab, haftalab vaqt sarflayotgan yoshlar bu tushunchaning o'tkinchi ekani, buning o'rniga biror hunar yoki kitob o'qisa foydasi ko'proqligini xayollariga ham keltirishmayapti.

Kundan kunga ommalashib borayotgan videolarni olish ba'zan butun kunni talab qiladi. Misol uchun, men oddiy 9 soniyalik «trendni» olish uchun kamida 35 marta kadr oldim va 3 soatga yaqin vaqtim ketdi. Tasavvur qiling, hozir kam sonli bo'lsa-da o'z obunachilarining bittagina «layki» uchun qimmatli vaqtini bekorga sovrishayotganini tushunish qiyin. O'n yillar ilgari bolalar bir-birinikiga dars tayyorlash uchun yoki kutubxonalariga borish uchun yig'ilishgan bo'lsa, bugun «trend» olish uchun jam bo'lishyapti. Oddiy bir misol: bir soatgina ijtimoiy tarmoqlarni kuzating, maktab o'quvchilarining dars vaqtida olgan saviyasiz videolarini ko'rib, xunobingiz oshadi. Nima bo'lganda ham, bugun qayta va qayta ta'kidlanayotgan internetdan umumiy foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarini, ijtimoiy roliklarni ko'paytirishimiz zarur.

Kuni kecha bolaning qo'liga telefon berib qo'yilganining mudhish oqibati haqidagi videorolikni ko'rdim. Mutasaddirlar mahalla, ta'lim muassasalarida yig'ilib, soatlab ma'ruza o'qish o'rniga shu kabi videoroliklarni namoyish qilishsa, tarqatishsa, samaraliroq natija berardi. Negaki, yoshlar eshitganidan ko'ra, ko'proq ko'rganiga ishonaypti. Zotan, bu kabi sa'y-harakatlar bugungi raqamli aloqa dunyosida mo'ljalni aniq belgilash uchun juda muhim.

Zarina AHMEDOVA



Ekoshaharlarga ehtiyoj – bu jiddiy «signal»

Ma'lumki, Toshkent viloyatining ma'muriy markazi bo'lgan To'ytepa, hozirgi Nurafshon shahri «Ikkinchi Toshkent» ekoshahar sifatida xalqaro standartlariga mos tarzda barpo etilayotir. Aytishicha, loyihada yangi texnologiyalar, ekoshahar tizimi hamda yurtimiz an'analari hisobga olingan. Ha yana bir gap: bu shahar mamlakatimizdagi birinchi «aqlik shahar»ga aylanaadi. Bu tajribaning respublika bo'ylab ommalashirilishi esa «yashil hudud»larning ko'payishiga turtki berishi mumkin.

Ma'lumki, zamonaviy, ekologik toza arxitektura barqaror qurilish materiallarini tanlashdan boshlanadi. Ekologik toza arxitektura orqali biz nafaqat binolar quramiz, balki yerni qadrlaydigan va kelajak avlodlar hayotini boyitadigan meroslarni ham yaratamiz. Soha mutaxassislarining ta'kidlashicha, bu yo'nalishdagi arxitektura alohida tuzilmalar bilan chegaralanmasdan, global ta'sirga ham ega. Ekologik toza arxitekturaning kelajagi axloqiy mas'uliyat haqida fikr yuritishga ham undaydi.

Shu o'rinda yana bir ma'lumot: amerikalik tadbirkor Mark Lor ham AQSHda Telos nomli yangi shahar yaratilishini e'lon qildi. Qayd etilishicha, AQSHning g'arbiy qismida, 60,7 ming gektardan ortiq sahro maydonida qurilishi reja qilingan mazkur ekoshahar uchun «yashil» materiallardan foydalaniladi. Binolarning tashqarisida qisman o'simliklar bilan qoplanadi. U yerda istiqomat qiluvchi aholining aksariyati piyoda harakatlanadi, shaharning transport tizimi velosipedlar, past tezlikda uchuvchi samolyotlar, bitta temiryo'l va havo taksisidan iborat bo'ladi. Xullas, keyingi yillarda sayyoramiz aholisi duch kelayotgan ekologik muammolar dunyoning turli davlatlarida ayni shunday ekoshaharlar qurish ehtiyojini tug'dirmoqda. Bu esa tabiatga bo'lgan munosabatlarimizga qaratilgan jiddiy «signal» hamdir...

Malikabdulaziz QALANDAROV



Kam uxlaysizmi? Unda...

Hech o'ylab ko'rganmisiz kam uxlash nimalarga olib kelishi mumkinligini? Mutaxassislarining qayd etishicha, o'rtacha uyqu miqdori chaqaloqlarda 17 soat, 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalarda 9–12 soat bo'lishi kerak. O'smirlar uchun 8–10 soat uxlash tavsiya qilinadi. Uyqusizlik – bu uzaki yoki chuqur uyquning tez-tez buzilish holatidir. Bunday holatni davolash juda muhim sanaladi. Chunki uyqusizlik dardiga duchor bo'lganlar me'yorda uxlay olmaganlari uchun charchash, kunduzgi uyquchanlik, qo'zg'aluvchanlik, ish qobiliyatining pasayishi va diqqatni jalb qilolmaslikdan aziyat chekadi. Ko'pchiligimiz kam uyqudan keyin yaxshi fikrlashga qiynalamiz. Bu dars davomida yanada ko'proq seziladi. Diqqatni jamlash, fikrni ifodalash qiynalashadi. Shifokorlarning aytishicha, muntazam ravishda kam uxlash hatto xotiraning pasayishiga olib keladi. Bu boradagi tadqiqotlarda ham uyqu miyaning me'yorda ishlashini ta'minlaydigan muhim tarkibiy qism ekanligi aniqlangan. Bugun ham o'qib, ham ishlovchi talabalar juda ko'pchilikni tashkil etadi. Tabiiyki, bu «uyqusizlar» sonini oshishiga olib keladi. Xo'sh, uyqusizlik kasaliga chalinmaslik

uchun nima qilish kerak? Bu borada olimlar shunday xulosa berishadi: uyqusizlikni davolash uchun avval uni qanday sabablarga ko'ra kelib chiqqanini aniqlash kerak. Agar uyqu bilan bog'liq muammolar tanadagi kasallik tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, uni davolash kerak. Avstraliyalik tadqiqotchilar kam uyqusizlik asoratlarini tuzatish mumkin degan xulosaga kelishibdi. Ularning aytishicha, organizmning o'zi unga qachon dam olish kerakligini eslatib turadi. Tushlikdan keyin o'zgina mizg'ib olish, dam olish kunlari to'yib uxlash uchun juda foydali ekan. Buni qarangki, Parkinson kasalligidan darak beruvchi omillardan biri ham kam uyqu, uxlash vaqtidagi bezovtalik ekan. Alsgeymer kasalligining kelib chiqish sabablaridan biri ham aynan uyqusizlik bilan bog'liq ekan. Demakki, nafaqat talabalar, balki har bir kishi vaqtini to'g'ri taqsimlash orqali uyqusizlikning oldini olishi, imkon qadar o'z vaqtida uxlashga harakat qilishi kerak. Darvoqe, taboatda sut mahsulotlari uyquni maromlashtirib, immunitizimini yaxshilashi aytilgan.

Shahzodbek OMONBOYEV

✓ Кутинг!

Фалсафа фанлари доктори, профессор, замонавий узбек фалсафа мактаби асосчиларидан бири. ҚИЁМИДДИН НАЗАРОВ НЕГА ҚАДИМГИ ЗАМОН ФАЙЛАСУФИ СОЛОН ВА УНИНГ ШОГИРДИ ПЕРИКЛИНИ ЭСЛАБ ҚОЛДИ. Келгуси сонларда

✓ Munosabat

Bu vandalizm! Boshqa narsa emas

Garchi Samarqand moddiy-madaniy meros obyektlarini o'z bag'risiga olgan ko'hna shahar hisoblansa-da, bugun ularning hammasi ham yaxshi holatda saqlanmayapti. Masalan, «Milliy tiklanish»dan saylangan deputatlarining o'rganishlari 1913–1919-yillarda barpo etilgan Abdurahmon Jomiy mahallasidagi «Kavazor» masjidini odamlar ko'z o'ngida vayron bo'layotganini ko'rsatmoqda. Umumiy maydoni salkam 10 sotixli masjid atrofida bir paytlar xujra va tahoratxonalar, ikkita hovuz bo'lgan. Ammo bugunga kelib, holati birmuncha yomonlashgan bo'lsa-da, masjid saqlanib qolgan. Boshqa inshootlar esa buzilib, qurilish materiallari sifatida sotib yuborilgan.

Eski shahardagi «Darizanji» masjid madrasasining ahvoli ham bundandashvishlanarli. Ma'lumotlarga ko'ra, turli hujralardan iborat madrasa XV asrda, masjid esa XIX asrda barpo etilgan. Ammo bugun asl masjididan nishon ham qolmagan, uning o'rnida barpo etilgan binoda esa 23-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyat ko'rsatyapti. Bir vaqtlar ilmu taliblar uchun maktab vazifasini o'tagan madrasa ham yo'q bo'lib ketish arafasida. Tabiiyki ta'sirlardan nurab borayotgan majmuadan esa omborxonalar sifatida foydalanilmoqda. XIX asr oxirlarida mahalliy aholi tomonidan bunyod etilgan Amir Temur mahallasidagi Yusuf Xarot

masjidining esa bugun faqat poydevori qolgan, xolos. Masjid yillar davomida mahalliy aholi tomonidan talon-taroj qilingan. «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Samarqand viloyat Kengashi ushbu obyektlarni qayta tiklash, asrash va saqlashni kechiktirib bo'lmaydigan vazifa deb biladi va asori atiqalarimizga loqayd munosabatda bo'layotgan shahar hokimligi mutasaddirlarini zudlik bilan amaliy choralarga chaqiradi. Aks holda deputatlarimiz ushbu masalani xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasiga kiritishlarini ma'lum qilamiz.



Partiyaning Samarqand viloyat Kengashi matbuot xizmati

✓ Partiya faoliyatidan

Three columns of text with icons and bold headings: VAZIFA, NATIJA, QARORI. Each column discusses party activities and their results.

Мен «САДОИ ФАРҒОНА» данман

2024 йилнинг 3 апрелида «Фаргона ҳақиқати» газетаси ўзининг 110 йиллик юбилейини нишонлайди. Бу водий қалам ахли учун катта воқеа, албатта. Чунки ушбу нашр асосан водий журналистлари мактабининг шаклланишида муҳим рол ўйнаган. Айтиш жонски, газета ўтган йиллар давомида қай бир тузум ва тизимга хизмат қилмасин, энг аввало, ўқувчи манфаатини бирламчи деб билган. Агар нашр тарихига назар солсак, «Садои Фарғона» номи билан ўз фаолиятини бошлаган газета не-не алломалар, шоиру носирлар, бир сўз билан айтганда зиёли ахли учун ишончли мишбар вазифасини ўтаганини кўрамиз. Чўлпондан тортиб Ашурали Зоҳирийгача бўлган забардаст олимлар, жадидлик тўнини кийган юраги бут ватанпарварлар сўзи ҳам айни ушбу нашр орқали миллионлар қалбига етиб борган.

Гарчи давр ва ижтимоий-сиёсий муҳит таъсирида газета номи бир неча бор ўзгарган бўлса-да, жамоанинг мақсади ҳам, муддаоси ҳам ўзгармай қолаверган. Менинг журналистикадаги илк фаолиятим ҳам айнан шу нашрда бошланганидан фахрланаман. Ушунда газета «Коммуна» номи билан чоп этиларди. Собик иттифок таназзули тезлашиб, мамлакат мустакилликка тобора яқинлашаётган 1987-1989 йилларда корректор, кейин эса муҳбирлик қилганман. Қонли Фарғона воқеалари – хуудда комендантлик соати жорий этилган пайтлардаги воқеаларни ҳам «Коммуна» газетасининг гувохномаси билан ёритишга уринганим эсимда... «Коммуна» ўшунда ҳам тезкорлиги, мазмун-моҳияти борасида хатто республиканинг манаман деган газеталаридан қолишмасди. Гарчи бутун матбуотга, айниқса, босма нашрларга муносабат ўзгарган бўлса-да, аммо «Фарғона ҳақиқати»нинг мавқеи ҳали ҳам пасаймади, аксинча, вилоятдаги айрим нашрлардан фарқли ўлароқ, ўз зиммасидаги вазифаларни масъулиятлироқ, ҳалолроқ ижро этишда, ўқувчига тўғри ва ҳолис ахборот тарқатишда етакчи.



Марғилонда яшаганим учун Фарғонага катнаб ишлардим. Ёшликнинг шижоати биланми ёки адолат ҳақидаги пурмаёно гапларга ишонибми, бир куни Марғилон шахридаги катта бог ҳамда йирик бир корхонада қонунлар бузилаётганини эшитгач, икки мавзун бирлаштириб, танкидий мақола ёза бошладим. Бир неча кун маълумотлар йиғдим, одамлар билан гаплашдим... Аммо мақола тайёр бўлган куни унинг машинкада

кетшим тўғри эканини тушунтирдилар. Ҳалигача эслаيمان, умр бўйи ҳалол меҳнат билан оила тебратган дадам кетишим олдилан Марғилоннинг айрим «дохий»ларидан узра сўрашимни ҳам қаттиқ тайинладилар. Гарчи дадамга «хўп» деган бўлсамда, лекин узрни насия қилиб, Тошкентга йўлга тушдим. Орадан йиллар ўтиб даламнинг ҳаммаси яхшиликка деган гапларини кўп эсадим... Буларни неча эслаяпман? Шу арзимас мисолнинг

тутилмасдан гапиряпти, ёзаяпти, газетачилар тили билан айтганда эса кўркмай бонг уряпти. Босма нашрлар ҳаёти шундай: муассислар ўзгараркан, бири келиб, бири кетаркан, кўпинча бирининг амрини иккинчиси бекор қиларкан. Аммо жамоа ва нашрнинг мақсади ўзгармай қолавераркан... Ўзининг 110 йиллигини нишонлаётган «Фарғона ҳақиқати» газетасининг мақсади, муддаоси ва жамоаси хуусида ҳам шундай фикр билдириш мумкин. Марказий

билан биринчи марта «Коммуна»да танишганман. Ёшлик шижоати сабабми ёки касбга бўлган кизиқишим, сира чарчамасдик, доимий ишда қолиш учун туну-кун елиб-югурардик. Ўша йиллари газетга Дониёр Эргашев Бош муҳаррирлик қилар, оппоқ сочларини доимо орқага тараб юрадиган, маданиятли, самимий ва хушмуомала инсон Аъзамжон ака Ортиқов эса ўринбосар эдилар. СССР халқ депутатлигига сайланган Абдуҷаббор ака Хусанов маъсул қотиб эди. Хуллас кеска муддат бўлса-да, матбуотда ўз ўрни, сўзи ва қаламига эга устозларнинг катта «қозонига қайнаш» бахтига муяссар бўлганман. «Коммуна»да шунингдек, таникли

журналистлар Иброҳим Ашуров, Амнжон Абдуллаев, Набижон Собиров, Музаффар Маматкулов, Абдуназар Худойназаров, Мухаббат Иброҳимова, Абдуҷалил Бобоҷонов, Адҳам Раҳмонов, Музимжон Нурматов, Хафиза Соляхова, Баҳодир Шокиров, Тўлқин Юнусов, Рустам Орипов каби фидойи инсонлар, устоз журналистлардан кўп нарса ўрганганман. Афсуски, уларнинг кўплари бутун орамизда йўқ... Эсимда, биринчи марта энди-энди тилга туша бошлаган ёш шоир Икбол Мирзони ҳам «Коммуна»да учратганман. Ушунда шонининг бир саҳифа шерьлари чоп этилган эди. Аммо «Коммуна»да узок ишлаш насиб этмаган...

Гарчи бутун матбуотга, айниқса, босма нашрларга муносабат ўзгарган бўлса-да, аммо «ФАРҒОНА ҲАҚИҚАТИ»НИНГ МАВҚЕИ ҲАЛИ ҲАМ ПАСАЙМАДИ, АКСИНЧА, ВИЛОЯТДАГИ АЙРИМ НАШРЛАРДАН ФАРҚЛИ ЎЛАРОҚ, ЎЗ ЗИММАСИДАГИ ВАЗИФАЛАРНИ МАСЪУЛИЯТЛИРОҚ, ҲАЛОЛРОҚ ИЖРО ЭТИШДА, ЎҚУВЧИГА ТЎГРИ ВА ҲОЛИС АХБОРОТ ТАРҚАТИШДА ЕТАКЧИ.

терилган нусхасини тақсид қолдирибман. Хайдовчи мақолани ўқиб, биз танкид қилган корхона раҳбарини танитгани боис ўша захотийк унга олиб бериб берибди. Кечга яқин дарвозамиз тақиллаб, мени бир киши сўраётганини айтиб қолишди. Йўлнинг нариги четига турган «Волга»га ўтирганидагина қимлар мени сўроқлаб келганини тушуниб етдим... Хали хеч қаерда эълон қилинмаган мақолада танкид қилинган корхона раҳбари билан кечган суҳбатимиз узокка чўзилмади. Якунда хар ким ўз фикрида қолди... Аммо ана шу учрашувнинг эртасигаёқ менга газета Бош муҳаррири номидан ўз хоҳишим билан ишдан бўшаш тақлифи билдирилди... ва 24 соат ичида вилоятдан чиқиб кетиш шарт қўйилди. Бундан хабар топган дадам «ҳаммаси яхшиликка» делилар бироз ўйлашиб. Кейин узок насихат қилиб, «қаттақон»лар билан низога бормасдан Тошкентга қўчиб

ўзи ҳам «Коммуна»нинг жамиятдаги обрў-эътибори қандай эди, деган саволга жавоб беради деб ўйлайман. Гувоҳи бўлганимдек, «Садои Фарғона»ю, «Коммуна»ларнинг вориси бўлган «Фарғона ҳақиқати»да бутун ҳам анчайин қайсар, гапга қирмайдиған, энг асосийси ўқувчи манфаати учун адолат тарафида тура оладиган ҳамкасбларини меҳнат қилишяпти. Уларнинг ташаббуслари, ўткир чиқишлари айримларга, айниқса, вилоятнинг баъзи бир дохийларига ёкмаётгани бор гап. Аммо вақтлар келадикки, газета муассиси, газета жамоаси ва унинг содик ўқувчиларининг бутунги фаолияти хали кўп тилга олинади. Шунинг учун ҳам одамлар уларга ишонишяпти. Яна бир гап: бутун газета айнан фидойи журналистлар ҳисобига ҳам ўз оёғида мустаҳкам турибди. Тўғри, маблағи камдир, тиражи вилоят ҳокимлиги муассиси бўлган пайтлардагидек эмасдир. Аммо қимларнингдир олдида кўзини яширмай, дудуклардек тили

Осиёдаги илк нашрлардан бири бўлган ушбу газета тарихи «Садои Фарғона»дан бошлангани боис ҳам у нафақат водий, балки бутун мамлакатимиз зиёдилари учун қадридир. Йиллар ўтиб, халқимиз бу нашрнинг 200 ва ундан кейинги юбилейларини ҳам нишонлашар. Илоҳим, ўша қунларда ҳам «Фарғона ҳақиқати» миллий матбуотимиз маконида ўз ўрнини йўқотмасин! Бутун эса фидойи жамоага мустаҳкам соғлиқ ва келгуси фаолиятларида улкан зафарлар тилаб қоламан!



Миродил АБДУРАҲМОНОВ, «Миллий тикланиш» демократик партияси раиси ўринбосари, «Миллий тикланиш» газетаси Бош муҳаррири

✓ Худудларда ✓ Ҳамкорлик

Сурхон ёшлари билан 180 дақиқа



Термиз давлат педагогика институтида «Депутат ва ёшлар» лойиҳаси доирасида учрашув бўлиб ўтди. Унда халқ депутатлари вилоят Кенгаши депутатлари Сайдулла Абдураимов ҳамда Сайпулла Туреуновлар иштирок этиб. Президентимизнинг ёшларга оид сиёсатида кўзда тутилган 2та энг муҳим йўналиш – замонавий билим бериш ва ёшлар бандлигини таъминлашга қаратилган саъй-ҳаракатларнинг бутунгача бўлган натижалари тўғрисида сўзлаб беришди.

Ёшларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилишда ташкилий-ҳуқуқий асослар йилдан йилга мустаҳкамланиб бораётир, жорий йилнинг «Ёшлар ва бизнесни қўллаб-қувватлаш йили» деб эълон қилиниши эса бу борадаги ислохотларнинг мантӣқий давоми бўлди, - деди тадбирда Сайдулла Абдураимов. Самимий мулоқот шаклида кечган учрашувда ёшлар сиёсатга оид ўзларини кизиқтирган саволларга жавоб олдилар. Ёшларни қўллаб-қувватлаш бўйича ўз

тақлифларини ҳам билдиришди. Салкам 3 соат давом этган учрашув якунида фаол иштирок этган ёшларга китоблар ҳамда партиянинг эсдалик совгалари топширилди. Тадбир якунида Термиз давлат педагогика институти ректори Азизбек Ҳасанов эса «Миллий тикланиш» демократик партияси аъзоллигига қабул қилинди. Улғубек ХЎЖАҚУЛОВ, партиянинг Сурхондарё вилояти Кенгаши раиси ўринбосари

Туризм имкониятлари Малайзияда намоён этилди



Малайзия, Индонезия ва Сингапур давлатларида Бухоро вилоятининг туризм имкониятларини кенг тарғиб этиш ҳамда ушбу давлатларнинг худудларида туоператорлар учун «Роуд-шоу»лар ташкил қилиш орқали сайёҳлар оқимини қўлайтириш мақсадида Бухоро вилоят делегацияси Малайзия давлатида бўлди. Сафар чоғида 10 га яқин туризм соҳаси вакиллари, йирик ассоциация ва корхоналар раҳбарлари билан учрашувлар ташкил этилди. Мазкур учрашувлар Ўзбекистоннинг Малайзиядаги элчихонаси вакили Элбек Санлов ҳамкорлигида Бухоро вилояти ҳокимлиги вакили Акмал Музаффаров ва Бухоро вилояти туризм бошқармасининг маъсул ходими Бобир Тўхсановлар томонидан амалга оширилди. Учрашувларда Малайзия халқаро савдо ва қўрғазма маркази бош

менежери билан «Роуд-шоу»ни ўтказиш масаласида муҳокама қилинди. Шунингдек, Малайзиянинг туризм, санъат ва маданият вазирлиги билан тарғибот компанияларини ишга солган ҳолда мамлакатлараро сайёҳлик алмашинувини қучайтириш, Малайзиянинг «Smart world travel & tours SDN BHD» туристик компанияси билан сайёҳлик алмашинувини борида алоқаларни мустаҳкамлаш борасида ишлар олиб борилади. Малайзиянинг 3 000 дан ортиқ туристик ташкилотини ўз ичига олган Малайзия тур ва сайёҳлик агентлари уюшмаси раҳбари билан «Роуд-шоу» тадбирида малайзиялик туоператорларни жамлаган ҳолда Ўзбекистонлик туоператорлар учун учрашувлар ташкил этиш масаласида келишиб олинди. Зариф КОМИЛОВ, ўза

